

Ismoil Somoniy



Ismoil Somoniy

Ismoil ibn Ahmad Somoniy

(849 yil, Farg'ona – 907 yil, Buxoro)

(874-907)

O'zbek davlatchiligi tizimida hukmronlik qilgan **somoniylar** sulolasining yirik vakili. Unga "amiri-moziy" – "dunyodan o'tgan amir" degan laqabni berganlar. Abbosiylar xalifa **Mu'tamid** (870-892) **Rofe ibn Lays qo'zg'olonini** bostirishda yordam bergan sulola asoschisi **Somonxudotning** o'g'llaridan **Nasr I ibn Ahmadni** Movarounnahrga noibi (873-893), Ismoil Somoniysi esa Buxoroga hokim etib tayinlagan. Ammo aka-uka o'rtaida ixtilof paydo bo'lib, ular ikki bor o'zaro urush qilgan. Birinchisi sulu bilan yakunlangan, ikkinchisida Ismoil Somoniy g'olib kelganiga qaramay, akasining hokimiyatini tortib olmagan.

893 yil **Nasr I** vafot etgach, xalifa **Mu'tazid** (892-902) Ismoil Somoniysi uning o'rniga Movarounnahrga noib qilib tayinlagan. U shu yiliyoq Taroz shahrini egallagan, 899 yil xalifaning Xurosondagi noibi **Amr ibn Lays** qo'shinini tor-mor keltirib, uning tasarrufidagi yerlarni bo'ysundirgan. 902 yil esa u Tabariston, Ray, Qazvin va Daylamni zabit etib, o'zini xalifalikdan mustaqil hukmdor deb e'lon qilgan. U 907 yil vafot etgach, o'rniga o'g'li **Ahmad ibn Ismoil** hokimiyat tepasiga kelgan.

Ismoil butun Movarounnahrni o'z qo'li ostida kuchli bir davlat qilib birlashtirdi. Xurosonda tashkil topgan Safforiylar davlatiga barham berdi va uni o'z davlatiga qo'shib oldi. Natijada poytaxti Buxoro shahri bo'lgan zamonasining eng yirik mustaqil o'rta asr davlati tashkil topdi. Bu davlatni somoniylar xonadonidan bo'lgan hukmdorlar – amirlar X asr oxirlarigacha idora qiladilar.

Ismoil Somoniy, tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, oqil, odil va ulamolarga homiy hukmdorlardan bo'lib, markaziy hokimiyatni mustahkamlash, kuchli qo'shin tuzish, itoatsiz amirlarni bo'ysundirish yo'lida qattiq kurashgan. U mamlakat obodonchiligiga ham katta e'tibor berib, ko'plab me'moriy inshootlar qurdirgan. **Narshaxiy** bergen ma'lumotga ko'ra, Ismoil Somoniying hukmdorlik muddati 30 yil bo'lib, shundan 20 yili Xuroson amiri ham edi. Uning davrida Somoniylar sulolasidan chiqqan hamma amirlar Buxoroda turadigan bo'ldilar. Undan

oldingi Xuroson amirlarining hech biri Buxoroda turgan emas.

2023-10-29 20:20:37